



Q O' S h M A B U Y R U Q

2023 yil “ 19 ” may

12 -son

Nukus shahri

2023 yil “ 10 ” may

10 12 -son

Sabzavot, poliz, moyli dukkakli va ozuqa ekinlari urug'lik maydonlarida nav tekshirish va aprobatsiya o'tkazish to'g'risida.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlaridagi urug'chilik sub'ektlarida 2023-yilda ekilgan sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va ozuqabop ekinlarning urug'lik maydonlarida gullashdan oldin navini tekshirish, navlarning navdorligi hamda kutiladigan hosil miqdorini aniqlash bo'yicha aprobatsiya o'tkazish maqsadida:

BUYURAMIZ:

1. Urug'chilikni rivojlantirish markazining 2023-yil 3-maydagi elita urug'chilik xo'jaliklari va urug'chilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalarida 2023-yilda ekilgan “Sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va ozuqabop ekinlarning urug'lik maydonlarida gullashdan oldin navini tekshirish, navlarning navdorligi hamda kutiladigan hosil miqdorini aniqlash bo'yicha aprobatsiya o'tkazish to'g'risida”gi 79-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Elita urug'chilik xo'jaliklari va urug'chilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalarida 2023 yilda ekilgan sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va ozuqabop ekinlarning urug'lik maydonlarida gullashdan oldin navini tekshirish, navlarning navdorligi hamda kutiladigan hosil miqdorini aniqlash bo'yicha aprobatsiya o'tkazilsin.

3. Sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va ozuqabop ekinlarning urug'lik maydonlarida gullashdan oldin navini tekshirish, navlarning navdorligi hamda kutiladigan hosil miqdorini aniqlash bo'yicha aprobatsiya o'tkazish uchun tajribali mutaxassislardan iborat aprobatsiya komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Komissiya zimmasiga:

-sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va ozuqabop ekinlari ekilgan urug'lik maydonlarida nav tozalash, navlarning navdorligini tekshirish va aprobatsiya tadbirlarini belgilangan muddatlarda o'tkazish.

- elita urug'chilik xo'jaliklari va urug'chilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan yetishtirilayotgan sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va ozuqabop ekinlar maydonlarida nav tozalash, navlarning navdorligini aniqlash va aprobatsiya o'tkazish hamda xujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlariga doimiy va tizimli amaliy yordam ko'rsatish.

-amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har 15 ish kuni mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligiga va "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" ga axborot berib borish.

-urug'lik maydonlarida o'tkazilgan nav tozalash, gullashdan oldin navini tekshirish, navlarning navdorligini aniqlash, aprobatsiya o'tkazish bo'yicha yakuniy hisobotlarni va xujjatlar nusxalarini "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" ga taqdim qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tegishli tuman bo'limlari va "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi 2023 yilda urug'lik olish maqsadida ekilgan sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va ozuqabop ekinlar maydonlarida nav tozalash, aprobatsiya o'tkazish va urug'lik tayyorlash ishlariga ma'sul ekanliklari belgilab qo'yilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Qishloq xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari F.Nurmuhammadov va "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DM Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari N.Seytniyazovlar zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vaziri



Z.Ziyadullaev


"Urug'chilikni rivojlantirish markazi"
DMning Qoraqalpog'iston Respublikasi
boshqarma boshlig'i




S.Sabirov


KIRITILDI:


“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DMning
Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i  B.Naubeev


Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligining
Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi mutaxassisi  T.Jumaniyazov


KELISHILDI:

Qishloq xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari  F.Nurmuhhammadov

“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DMning
Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi
boshlig‘ining o‘rinbosari  N.Seytniyazov

Qishloq xo‘jaligi vazirligining sho‘ba boshlig‘i  K.Nurniyazov

“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DMning
Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i  Q.Murtazaev

Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DMning
Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi yurist kadri  K.Malikov

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Qishloq xo‘jaligi vazirligi va “Urug‘chilikni
rivojlantirish markazi” DMning
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
boshqarmasining
2023 yil 01 maydagi 02 -sonli
qo‘shma buyrug‘iga ilova

Sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va ozuqabop ekinlarning urug‘lik maydonlarida
gullashdan oldin navini tekshirish hamda kutiladigan hosil miqdorini
aniqlash hamda aprobatsiya o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh

TARKIBI

№	Biriktirilgan mas‘ullarning	
	Ismi va familiyasi	Lavozimi
1	F.Nurmuhammadov	Qishloq xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari, katta aprobator.
2	S.Sabirov	“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DM Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i katta aprobator o‘rinbosari
3	T.Jumaniyazov	Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi mutaxassisi aprobator
4	K.Nurniyazov	Qishloq xo‘jaligi vazirligining sho‘ba boshlig‘i
4	A.Turganbaev	Qoraqalpog‘iston dehonchilik ilmiy taqdikot instituti mutaxassisi aprobator
5	B.Allayarov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish” DUKning mutaxassisi aprobator
6	Q.Murtazaev	“Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DM Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bo‘limi boshlig‘i, aprobator.
7	B.Naubeev	Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DM Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi sabzavot, poliz va boshqa ekinlar urug‘chiligi bo‘limi boshlig‘i, aprobator.
8	Lavozimi bo‘yicha	To‘rtko‘l, Beruniy, Ellikqal‘a, Amudaryo, Nukus tumanlari Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshliqlari ma’sul aprobatorlar.